


106. Koordinata burchagida nuqtalar yasash

Yondosh mavzu:
stol o'yinlari.

Koordinata burchagi,
koordinata, nuqta.



1. Harflarni ko'rsatilgan tartibda yig'ing. Qanday so'z hosil bo'ldi?



(3; 1)	(1; 1)	(1; 3)	(5; 2)	(10; 2)	(6; 5)	(9; 4)
--------	--------	--------	--------	---------	--------	--------

2. Daftaringizga koordinata burchagini chizing. Bir bo'linish 2 ta katakka teng bo'lsin. Bu burchak ichida quyidagi nuqtalarni ketma-ket tutashtiring:

$(3; 2) \rightarrow (1; 4) \rightarrow (3; 6) \rightarrow (8; 4) \rightarrow (9; 6) \rightarrow (9; 2) \rightarrow (8; 4) \rightarrow (3; 2) \rightarrow (4; 4) \rightarrow (3; 6)$.

Nima hosil bo'ldi? Bu obyektни oxirigacha chizing.

3. Ushbu $(0; 0)$, $(3; 0)$, $(4; 0)$, $(7; 0)$ nuqtalarda qanday umumiylik bor? Ular qayerda joylashgan?

Ushbu $(0; 0)$, $(0; 2)$, $(0; 3)$, $(0; 6)$ nuqtalarda qanday umumiylik bor? Ular qayerda joylashgan?

106. Koordinata burchagida nuqtalar yasash



4. "Suratlarni shifrllovchi – suratlar shifrini yechuvchi" loyihasi.
Katak daftaringizdan ikkita varaq oling. Birinchi varaqqa koordinata burchagini chizing. Bir bo'linishni bitta katak deb oling. Varaqqa gul, toj, maysa, daraxt, tog' kabilarning oddiy suratini chizing. Ularning atrofini siniq chiziq bilan o'rash mumkin bo'lsin. Endi suratni shifrlang – ikkinchi varaqda bu siniq chiziqlarning barcha uchlari koordinatalarini yozib chiqing (suratlar va ularning shifrlarini oldindan, uyda tayyorlab kelsangiz ham bo'ladi). Shifrnı qo'shni jamoaga bering, lekin suratni ularga ko'rsatmang. Suratni qaysi jamoa birinchi bo'lib topdi? Narigi jamoa sizga bergan shifr aniq ekanmi? Buni o'yin oxirida baholang. Suratning shifrini kim birinchi bo'lib yechdi?



5. Radist 5 min 40 s ichida 340 ta harfli matnni shifrlab uzatdi. U 1350 ta harfli matnni qancha vaqtda shifrlay oladi? Bu vaqtni minut va sekundlarda yozing.



6. Bu kemalarning koordinatalarini yozing.

